

**Baroat kechasida  
qilinadigan 4 ta eng  
katta xato**

**Baroat kechasiida qilinadigan 4 ta eng katta xato- birozdan so`ng-o`qiydiganimiz 4 ta muhim masalani bilmaslikdir!**

**Baroat** – qutqarilish, kechirilish demakdir. Bu kechaning asl maqsadi – so`ngiga qadar ochiq turadigan avf eshiklarini qoqishdir.

Nega “Baroat kuni” deyilmadi-da , “Baroat kechasi” deyildi? Hijriy taqvimda kun kechadan boshlanadi. Shu sababli Baroat kuni emas, Baroat kechasi deyiladi.

Qur`on tushirilgan kecha - **Baroat kechasi**dir,

Qur`onning ilk sakkiz oyati tushirilgan kecha - **Qadr kechasi**dir.

Deylik , siz uchun qiymatli bir kun bor va bu kunda do`stlaringizni , yaqinlaringizni chaqirsangiz, lekin ular kelmasa qanchalik xafa bo`lasiz?! Siz uchun qiymatli bo`lgan kunni ular qadriga yetmasa ranjiysiz, ko`nglingiz og`riydi. Shu kabi Baroat kechasi ham Alloh taolo uchun juda ahamiyatli, qiymati baland kundir. Alloh bu kechada bizga avf etilishning mujdasini beradi. Alloh e`tibor qilgan bu kechaga biz beetiborlik qilsak nima bo`ladi?!

O`ylab ko`ring! Qadr kechasida har bir hasanaga 30ming savob yozilsa, Baroat kechasida har bir yaxshilikka, har bir hasanaga 20 ming savob yoziladi. Shu qadar barokatli bir kechani g`aflat uyqusida o`tkazish qanday ham achinarli hol bo`ladi. Avf uchun berilgan bir mujdani otib yuborgan kabi bo`lasiz.

Rajab va Shabon oylari qiymatini Ramazon oyidan oladi. Ramazon oyi qiymatini ohirgi 10 kunidan oladi. U esa qiymatini bag`rida saqlagan Qadr kechasidan oladi. Qadr kechasi qiymatini Qur`ondan oladi.



Bir hadisi sharifda shunday deyiladi:

**“Alloh taolo Baroat kechasida dunyo samosiga tushadi va Kalb qabilasi qo`ylarining mo`ynasi sonidan ham ko`p gunohlarni avf etadi”.**

Bani Kalb qabilasi qo`ylarining ko`pligi bilan mashhur bo`lgan bir qabila. Shu tufayli arablar buni ibora sifatida qo`llashadi. Bu kechada juda ko`p insonlar avf etilgani sababli davomiy tarzda Baroat kechasi deyila deyila nomi ham Baroat bo`lib qolgan .

Boshqa bir hadisda : "*Shabonning 15- kechasi kelganida , kechan ni uyg`oq, ibodat bilan, kunduzni esa ro`zador holda o`tkazing. U kecha, quyosh botganidan so`ng Alloh rahmati ila dunyo samosiga tushadi va shunday xitob qiladi: " Istig `for aytadigan yo`qmi, uni avf etaman, rizq istagan yo`qmi, rizq beraman, boshiga bir musibat kelgan yo`qmi, sog`lik va ofiyat beraman".*

Shunday qilib , tong otgunga qadar bu hol shu tarzda davom etadi.  
Shunday bir muborak kechadan nasibsiz qolgan kishi yomg`irda bo`la turib, quruq qolgan odamga o`xshaydi.

Baroat kechasida qilinadigan 4 ta eng katta xato- birozdan  
so`ng o`qiydiganimiz 4 ta muhim masalani bilmaslikdir!  
Bu 4 masala Baroatning shartlaridandir.

01

IYMON

02

NAMOZ

03

Tavba

04

Allohnинг diniga  
xizmat etish



# 01

Baroat kechasiandan nasibador bo`lish  
uchun kerak bo`lgan 1- shart:  
lymonni o`rganish.

★ ★ ★

Agar bir tanaga iymon kirmasa, shirk kirsa u insonni Baroatdan nasibasi bo`lmaydi. Sahobalar ham shu sababdan : "Hayotim

*so `nggida iymon bilan ketarmikanman?!"* deya qattiq

qo`rqishgan. Sahobalarning Qur`on ila aloqasi qanday bo`lgan bilasizmi? Bizning telefonimiz bilan aloqamiz kabi bo`lgan. Hech

qo`llaridan tushirmaganlar. Ko`p sahobalar Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan Qiyomat qachon bo`lishi, uning alomatlari haqida so`rashgan, juda kichik bir alomat ko`rinsa

ham: " qiyomatning alomati chiqdi" deyishgan . Biz esa g`aflatda bo`lganimiz uchun,qalblarimiz hushyor va uyg`oq bo`lmaidan bu voqealar bizga ta`sir etmayapti.

**Tilimiz o`lim bor deydi, ammo fe`llarimiz o`lim yo`q kabi yashaydi.**

★ ★ ★


Biz bugun **La Ilaha Illaloh!** deymiz lekin ma`nosiga e`tibor bermaymiz. *Yaratish Unga xosdir, Yashatish ham Unga xos, uyim ham Uniki, uyim ichidagi oilam, bolalarim ham Uniki, ko`chalar ham Uniki, Jome ham Uniki, Tijorat ham Uniki, siyosat ham Uniki, barcha barchasi Uniki.*

Bu ma`nolarni bilmaganimiz sababli bu kalima ham ,  
iyomon ham mavhum qolmoqda.

Iyomon nima bilasizmi?

Iyomon- "yaxshi bilaman" deb o`ylaydiganimiz, ammo eng kam biladiganimiz bir masaladir, afsuski.

Asadúlloh ya`ni "Allohning arsloni" deb atalgan Hz. Hamzaning iymon etishlarini yodga olaylik. Makkaning 6- yilida lymon keltirishadi. Bir kuni Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Safo tepaligida o`tirganlarida Makkaning eng zolim mushriklaridan bo`lgan Abu Jaxl hamtovoqlari bilan o`tib qoladi va og`ziga kelgan gapni qaytarmay U zotni xaqorat qila boshlaydi. Bu ham yetmagandek U zotga tosh va tezaklar otadi. Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallam javob qaytarishmaydi, uylariga ketishadi. Bu holni bir cho`ri kuzatib turar edi. Cho`ri bunday zulmga toqat qilolmay yordam qidirib ketadi. Shu payt Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning amakilari Hazrati Hamza ovdan qaytayotgan edilar. Ularga voqeani bildirganda Hazrati Hamza nihoyatda darg`azab bo`ladilar . lymon keltirmagan bo`lsalar ham suyukli jiyanlarini haqoratlanishiga chidab turolmas edilar.



- Shahdam qadam ila Abu Jaxlning yoniga boradilar va yoyini olib Abu Jahlni boshini yaralaydilar. "Hamza iymon keltirib qo`ymasin" deya Abu Jahl javob qaytarmaydi, aksincha bahonalar aytan boshlaydi. Hz Hamza uni eshitmaydilar va ustiga bostirib borishda davom etadilar. Abu Jahl uni tinchlantrish uchun "Jiyaning ota bobolarimizni haqoratladи" deganda "Mening jiyanim nima desа to`g`ridir, Men ham uning dinidaman" deyishadi. Undan so`ng Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga borib bo`lgan voqeani aytib berishadi, lekin U zot xursand bo`lmaydilar.



Q`ylab ko`ring, Hz Hamza Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ham amakisi, ham emakdosh birodari, ham xolasining o`g`lidir. “ Suyukli jiyanim, sizga bu qilganlarim yoqmadimi? Nega xursand emassiz ? ” deb so`raganlarida “ suyukli amakim, mening intiqomimni olishingiz meni mamnun etmaydi, zero aytganlarimga ishonib, iymon keltirishingiz meni mammun etadi” deya javob beradilar Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallam. Hazrati Hamza o`sha yerda iymon keltirishadi. Nega Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buni istadilar? Chunki agar iymon bo`lsa Hz Hamza qilgan ishlarining qiymati bor, agar iymon bo`lmasa qilganlarining hech bir qiymati yo`qdir. Nimaga Baroat uchun iymon shart ekanligini endi tushundingizmi ?

Agar iymon bo`lsa senga Baroat eshiklari ochiqdir. Iymon bo`lmasa imkoni yo`q. Demak Baroat uchun bizga lozim bolgan birinchi shart lymondir.





02

Baroat kechasiandan nasibador bo`lish  
uchun kerak bo`lgan 2- shart:  
Namoz.



Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga vahiy Dushanba kuni kelgan bo`lsa, seshanba kuni Jabroil (a.s) kelib namozni va tahorat olishni o`rgatadilar. Demak iymon va namoz shu qadar bir biriga yaqin ikki hodisadir. Endi biz namoz masalasida qiladigan xatolarimiz haqida gaplashaylik. U xato nima? Biz namoz deganimizda shakily bir namozni tushunamiz, ammo oyatda nima deyiladi: "...**Albatta, namoz fahsh va munkar ishlardan qaytarur**" (*Ankabut surasi 45-oyat*)

Namoz o'qiyman ammo axloqsizman, namoz o'qiyman ammo quyl haqqi yeyman,adolatsizman, qalbimda adovat, kin, xasad bor. Insonlarga haqsizlik va zulm bor. Bu oyatga boqqanimizda biz qilgan namoz, oyatda bahs etilgan namoz emasligi ayon bo'ladi. U payt biz namoz o`qimayapmiz, shunchaki shakliy jihatdan ibodat qilishga harakat qilyapmiz. Agar namozni oyatdagidek qilsaydik U namoz bizni mutlaqo o'zgartirar edi, hayotimizni o`zgartirardi. Ahloqimizni

va insonlarga bo`lgan muomalamizni o'zgartirardi.




  
 Bir jihatdan biz namoz  
 qilamiz, boshqa bir  
 + jihatdan esa namoz bizni  
 inson qiladi.



٢٧٦

الْمُؤْمِنُونَ

يَوْمَ أَبْرَقَ كُلُّ شَفَاعٍ مَجَادِلٍ عَنْ تَقْسِيمِهِ وَتَوْفِيقِهِ لِيُنْتَهِي  
 مَا عَيْتَ وَهُنَّ لَا يُطْلَقُونَ ۝ وَرَسَّأَهُمْ مَعْلَمَةً فِي كُلِّ كَوْنٍ  
 أَنَّ مُطْبَقَتَهُ أَيْمَانَهُ زَعْدًا مِنْ كُلِّ مَكَانٍ تَكْتُبُ  
 بِأَلْفَاظِهِ كَاذِبَةَ الْقَوْلِ الْمُسْلِمِيِّ الْمُحْرَفِ كَمَا كَانَ  
 يَسْعَدُونَ ۝ وَلَقَدْ جَاءَهُمْ رَسُولٌ مِنْهُمْ مَكَانَهُ  
 فَأَخْذَهُمْ أَنْتَابٌ وَهُوَ طَالِمُهُنَّ ۝ تَكْلِيْفُهُمْ وَرَكْنُهُمْ  
 حَلَالٌ لَآتِيَّهُمْ وَكُلُّ رُدُّوازٍ لِهُنَّ كَفِيلُهُمْ  
 هَذِهِ دُونَ ۝ إِنَّمَا تَرَكَهُمْ عَلَيْهِمُ الْيَتَامَةُ وَالْمَرْءُ وَكُلُّهُ  
 الْجَنَّرُ وَمَا أَهْلَكَهُمْ فَوْقَ أَضْطَلَهُمْ عَشَائِعُ وَلَا كَادَ  
 فَلَذَّةٌ غَفُورٌ ذِيْجِيْهُ ۝ وَلَا تَقْوِيُّ الْمَاصِفَةُ أَسْكِنَهُ  
 الْكَسِيدَهُ هَذِهِ تَكَلِّدُهُ وَهَذَا حَكَمُ الْيَقِينِ رَعَايَهُ  
 الْكُوكُرُ ۝ أَنَّ الْمَنَهَذَهُونَ كَمِّ الْكَوْبُ لَأَنْهُمْ  
 سَيَّاعُهُنَّ قَبِيلٌ وَكُلُّهُ عَذَابٌ أَيْمَهُ ۝ وَعَلَى الْمَدِينَ  
 كَادَ وَاحْتَمَّ أَمَا قَصَصَنَا عَلَيْكَ مِنْ تِنْتَهِ  
 وَمَا تَلَقَّيْتَهُ وَلَكِنْ كَافَ لِأَقْصِمَهُ تِنْتَهِ

سُورَةُ الْمُؤْمِنُونَ

٢٧٦

وَلَقَدْ نَعْلَمَ أَنَّهُمْ يَقْرُؤُونَ ۝ إِنَّمَا يُكَلِّمُهُمْ مُكَثِّرٌ بِإِيمَانِهِ  
 بِجَهَنَّمَ الْمُحْكَمِيِّ وَمَعْلَمَاتِهِ مُبِينٌ  
 ۝ إِنَّ الْمُؤْمِنَ لَأَوْمَأَهُ بِمَشْرُدَهِ يَأْكِلُهُمْ  
 وَكُلُّ مَذَاقٍ أَيْمَهُ ۝ إِنَّمَا يُقْبَرُهُ الْمَكَادِمَهُ ۝  
 لَأَوْمَأَهُ بِمَشْرُدَهِ يَأْكِيلُهُنَّ مُهَمَّهَهُ الْمَكَادِمَهُ ۝  
 وَرَكْنُهُمْ يَأْكِلُهُنَّ مُهَمَّهَهُ الْمَكَادِمَهُ ۝ وَقَبْلَهُ مُهَمَّهَهُ  
 بِالْأَكَانَهُ كَلِّكَنِيْهُ مِنْ شَرَحِ بَلْدَهُ مُهَمَّهَهُ الْمَكَادِمَهُ  
 عَسْكِيرَهُ أَقْمَهُهُ مُهَمَّهَهُ الْمَكَادِمَهُ ۝ ذَلِيلَهُ  
 يَأْهُمُهُ أَسْكِنَهُ الْمَحْبَرَهُ الْمَهْبَرَهُ عَلَى الْأَحْكَمِهِ وَإِنَّ  
 أَنَّهُ لَأَهْبَهُ الْقَوْمَ الْكَافِرَهُ ۝ أُولَئِكَ  
 الْمَنَصُوعُهُ عَلَى خَلْدُهُهُ وَكَفْهُهُهُ وَأَصْفَارُهُهُ  
 وَأَوْتَيْتُهُمُ الْمَنَاهَذَهُ ۝ لَأَبْكَهُمْ أَهْمَهَهُ  
 فِي الْأَخْرَجِهِهُ الْمَحَسُورَهُ ۝ فَرَأَيْتَهُنَّ الْمَهْبَرَهُ  
 مَاسِجِدَهُمْ بَعْدَ مَا فَتَنَاهُنَّ كَمَدَهُوَصَبَرَهُ  
 إِذَ زَبَقَهُ مِنْ بَعْدِهِهُ الْمَكَادِمَهُ رَجِيْهُ ۝



Sahoba afandilarimizning namozga munosabati qanday, bilasizmi? Ularning hayotiga qaraganimizda ba`zan ichkilik ichgan yoki had jazosi (**talonchilik, yo`l to`sish kabi jinoyatlarni qilganlarga beriladigan jazo**) olgan sahobalarni ko`rishimiz mumkin. Ammo qancha izlasangiz ham namoz qilmagan sahobalarni uchratmaysiz. Ularning namozga munosabati bu shaklda bo`lgani uchun kichik bir gunohdan ham tezda qayta olganlar. Biz iymonga nazariy jihatdan qarab eng buyuk xatoni qilyapmiz. Yani faqat ma'lumot , faqat dallillar to`playapmiz, iymon esa miyamizda qolyapti.



Inson ilmni nega o`rganadi? Bir ma'lumotni nima  
uchun o'rganasiz? Foydalanish uchun o'rganasiz.  
Masalan men, eng rivojlangan telefonni qanday  
ishlatishni bilsam-u, lekin undan foydalanmasam,  
miyamda faqat ma'lumot o'laroq qolsa mantiqqa  
to'g'ri keladimi? Huddi shunday ilm o'rganish ham  
tadbiq etish, amal etish uchundir.





*Namoz dinning ustunidir, nuridir  
Safina-i dinni Namoz yuritur  
Jumla ibodatning Namoz piridir,  
Namozsiz , niyozsiz Islom bo`lurmu?!*

"Safina-i din " - "Kema" manosini anglatadi. Ya`ni : "Din kemasi", "Saodat kemasi" demakdir.



03

Baroat kechasiandan nasibador bo`lish  
uchun kerak bo`lgan 3- shart:  
Samimiy tavba.

Robia al Adaviya aytganlaridek:  
**"Bizning tavbalarimiz tavbaga muhtojdir".**

Ba'zan bir narsani ko'rib hayton qolaman: ayrim odamlar eski  
hayotida birisiga qilgan zulmlarni, gunohlarni gapirib, "johiliyat  
davrimda bunday edim" deya do'stlari bilan kulishib o'tifadi.  
Qalbda pushaymonlik bo`lmasa bu tavba tavba emas. Bir inson  
shunday samimi tavba etishi kerakki, qilgan gunohlarini  
eslaganda: "Pushaymonman ya Rob, avf et meni. Sen ko`rishingni  
bilib turib bunday xatoga qanday qo'l urdim?! O`zimga zulm  
qildim Allohim, kechir!" deya, qalbida go`yo chog'dan o't  
chiqayotgandek dalli devona bo`lishi kerak.



Demak samimi tavbaning ilk sharti- haqiqatdan qalbda azob va pushaymonlik tuymoqlikdir. Inson avvalgi gunohlari aqliga kelganda, takror eski hayotiga qaytishni jahannamning otashiga tushish kabi yomon ko`rishi kerak va bu bilan birga aslo va aslo Allohdan Umid uzmasligi lozim. Zero siz u eshikka yaqinlashganingizda Alloh avf etmaydigan biror gunoh qolmaydi. Buning eng muhim jihatlaridan biri - tavbani kechiktirmaslikdir. Zero biz o'zimizni aldashni juda sevamiz. "**"Shu ishni qilib olay keyin tavba qilaman"** degan bahonalarni zinhor qilmasligimiz lozim. Bu shaytonning katta hiylalaridandir.



Bizning o`zimizga beradigan zararimiz qadar olam bizga zarar berolmaydi. Tashqaridan birisi menga zarar bersa bu Jannatimga chipta bo`ladi. Ammo nafsim menga zarar bersa bu jahannamga bir yo'l bo'lishi mumkin. Bunga etiborli bo`lishimiz kerak.

Tavba qilgandan so`ng, buyuk gunoh yo`qdir,  
Inkor etgandan so'ng, kichik gunoh yo`qdir.  
Zero har gunohda shirkka, Allohga isyon qilishga ketadigan bir yo'l bordir.



Tavba qilganda atrofdan uyalsangiz, shu jumlalarni eslang:  
"Uyalmoq otashdan hayrlidir" (Hz.Hasan r.a)

"Odamlar nima deydi ? " degan savol aglimizga kelsa  
"uyalmoq-otashdan hayrlidir", ya`ni men odamlarning gap  
so'ziga chidashim mumkin ammo jahannamning otashiga  
aslo chidolmayman" deyishimiz kerak.



04

Baroat kechasiandan nasibador bo`lish  
uchun kerak bo`lgan 4- shart:  
Allohning diniga hizmat etish.

Bizlar "uyda Qur'on o`qi, namoz qil, uyingdan chiqma,  
so'nggida o'limingni kut" deydigan Ummat emasmiz.

Buni qayerdan bilamiz? Sahobalar hayotidan.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam davrlarida 100  
mingdan ortiq sahabalar bor edi va ko`plarining qabri 20  
ming kilometr uzoqda, Xitoy chegarasigacha bo`lgan  
hududda joylashgan. Bu nima degani?

Bu - ish faqat bilish, uyiga kirib Qur'on o'qish degani  
emas. Bazi ota-onalar farzandiga "**uyda o'tir, Qur`oningni**  
**uyda o`qi**" deyishadi. Ya'ni doktor bir dori berdi va  
"**buni devorga ilib qo`y, tomosha qil ammo ichma,**  
**keragi yo`q**" deyishiga o'xshaydi.



Yana bir ahamiyatli jihat shuki:

Baroat kuni-Inson Taqdirining bir yillik dasturi (rejası),  
farishtalarga yetkaziladi. Insonlarning bir yillik muammolari,  
tug`ilishi, o`limi bu shaklda bildiriladi.



Qadr kechasi Qur'onning ilk 8 oyati tushgan kechadir va savobi 30 mingdir. Baroat kechasi esa Qur'onning tamomini samoga tushirilgan kechadir va savobi 20mingdir.

Shuni o`ylab qoldim, ajabo Qadr kechasida nega 30ming savob berilyapti? Bu Qadr surasidagi bir oyatga mos keladi: "Qadr kechasi ming oydan hayrlidir." (*Qadr surasi 3 oyat*). Qarang! Bir oyda necha kun bor? 30 kun. Siz buni 1000 ga ko'paytirsangiz 30ming savob bo`ladi. Angladингизми?

★ ★ ★

Baroat kechasida har bir amali solihga va har bir o`qilgan Qur'on  
harfiga beriladigan savob 20 mingga chiqadi . Bundan shuni  
anglashimiz mumkin-ki **Alloh taolo bizni Jannatiga kiritish uchun**  
**bahonalar yaratyapti.** Allohning ibodatimizga , savobimizga  
ehtiyoji yo`q! Bizning ehtiyojimiz bo'lgani uchun va O`zining  
naqadar buyukligining namoyishi o'laroq bu kechalarni yaratgan .  
Alloh deydi-ki: "Ey qulim! Sen bir yaxshilikni niyat qilsang, bir  
savob yozaman, uni amalga oshirsang 10 savob yozaman.  
Bu ham yetmasa senga shunday kechalar beraman-ki, unda qilingan  
★ 1dona savobni – 1 ming, 10 ming, 20 ming, 30ming deb yozaman.★  
Ammo gunohni niyat qilsang, amalga oshirmaguningcha gunoh  
yozmayman".  
Shunday bir barokatli hazina ochilgan ekan, bir inson och va faqir  
qolmaslik uchun kurashishi lozim.





# E`tiboringiz uchun rahmat!

Ushbu tarjimalar Mehmet Yildizning suhbatlari  
asosida tayyorlandi. Ustozdan Alloh rozi bo`lsin!

Baroat kechasini go`zal tarzda o`tkazish  
barchamizga nasib etsin!

12.03.2022yil.